



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



(2019 yil 1 iyul holatiga)

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yhatdan
o'tgan

25052 ta.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

24474 ta.

Yangi
tashkil etilgan

3562 ta.

2019 yilning yanvar - iyun oylarida viloyatda 3562 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1804 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3311 taga, faoliyat ko'rsatayotganlarning soni esa, 3718 taga o'sdi.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 iyul holatiga)

**25052 tani
tashkil etdi**

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar
soni, birlikda**




**O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati**



2019 yilning 1 iyul holatiga 25052 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,5 % savdo, 21,0% sanoat, 7,1 % qurilish, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % axborot va aloqa hamda 27,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha savdo (6633 ta), sanoat (5256 ta), qurilish (1772 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1727 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1085 ta), tashish va saqlash (932 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (537 ta), axborot va aloqa (352 ta) hamda boshqa faoliyat turlariga (6758 ta) to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



● Namangan sh. ● Mingbuloq ● Kosonsoy ● Namangan ● Norin ● Pop ● To'raqo'rg'on
● Uychi ● Uchqo'rg'on ● Chortoq ● Chust ● Yangiqo'rg'on

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'pi Namangan shahri (9230 ta) hamda Chust (2071 ta) va Namangan (1731 ta) tumanlariga, eng kam esa, Mingbuloq (1018 ta), Norin (1073 ta) va Yangiqo'rg'on (1245 ta) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 24474 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3718 taga, yoki 17,9 % ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Namangan shahri (8958 ta), Chust (2002 ta), Namangan (1702 ta), Uychi (1552 ta), Kosonsoy (1490 ta) va To'raqo'rg'on (1482 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1017 ta), Norin (1061 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1204 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019 yil yanvar-iyun oylarida 3562 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1804 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida

soni, birlikda

o'sish surati, %da



Yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1444 ta), sanoat (961 ta), qurilish (270 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (214 ta) sohalarida, eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (29 ta), axborot va aloqa (38 ta) hamda tashish va saqlash (124 ta) faoliyat turlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo

1444



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

190



Sanoat

961




Tashish va saqlash

124



Qurilish

270



Axborot va aloqa

38



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

214



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

29


Boshqa turlar



292

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1004 ta) hamda Pop (305 ta), Chust (304 ta), Uchqo'rg'on (263 ta), Uychi (261 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (169 ta), Yangiqo'rg'on (180 ta) va Chortoq (194 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 iyul holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonasi va tashkilotlar soni 20208 tani tashkil etdi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonasi




Oilaviy korxonasi




Unitar korxonasi




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



182 ta



O'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,1 % o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 182 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 61,1 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 127 tasi qo'shma, 55 tasi esa, xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 62 ta (jami ulushi 34,2 %), Kosonsoy tumanida 18 ta (9,9 %) Uychi tumanida 16 ta (8,8%) hamda To'raqo'rg'on va Chust tumanlarida 15 ta (8,2 %) danni tashkil etgan.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mingbuloq tumanida 3 ta (1,6 %), Uchqo'rg'on va Namangan tumanlarida 5 ta (2,7 %) danni tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda qurilish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar







1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019 yilning yanvar - iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 49 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36 taga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 9 ta, Koreya Respublikasi - 7 ta, Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasi - 5 tadan, Qirg'iziston Respublikasi - 4 ta, Hindiston va Turkiya - 3 tadan, Qozog'iston, Chexiya, Eron va Misr mamlakatlari - 2 tadan, Keniya, Singapur, Kanada, Afg'oniston va Niderlandiya davlatlari - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 19 ta sanoat, 9 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 7 ta savdo faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)









2019 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20098 tani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 22,0 % ga oshgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida 3444 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2018 taga ko'proqdir.




•Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

•Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi foizda



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20098 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6352 tasi (31,6 %) - savdo, 5165 tasi (25,7 %) - sanoat, 1703 tasi (8,5 %) - qurilish, 1659 tasi (8,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1047 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 911 tasi (4,5 %) - tashish va saqlash, 433 tasi (2,2%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 324 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa, shuningdek, 2504 tasi (12,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1444 ta (41,9 %), sanoat 960 ta (27,9 %), qurilish 270 ta (7,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 212 ta (6,2 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 190 ta (5,5 %) tashkil etilgan. Eng kam sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 29 ta (0,8%), axborot va aloqa 38 ta (1,1 %) hamda tashish va saqlashda 124 ta (3,6 %) tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (967 ta), Chust (296 ta), Pop (294 ta) va Uchqo'rg'on (259 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (163 ta), Yangiqo'rg'on (175 ta) hamda Chortoq (178 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'lish dinamikasi, birlikda

(1 iyul holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019 yil 1 iyul holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 48,1 %i yoki 208 tasi sanoat, 16,4 %i yoki 71 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlar, 15,0 %i yoki 65 tasi savdo, 9,3 %i yoki 40 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 5 tadan axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalari, 0,5 % yoki 2 tadan qurilish hamda tashish va saqlash, 7,8 %i yoki 34 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Namangan viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.
Tel.:71-230-84-95(96)**